

RESEARCH ARTICLE

The role of lexicography in the history of translation (the example of jadid linguists' activities)

Rustam Sharipov

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 31-34

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article explores the contributions of Jadid intellectuals to the development and preservation of the Uzbek language, translation, and lexicography from the late 19th to the early 20th century. The study highlights the philosophical and practical approaches of prominent figures such as Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, and G'ozi Olim Yunusov in promoting linguistic purity, creating dictionaries, and standardizing terminology in various fields, including law, politics, and economics. Despite political repression during the Soviet era, their efforts ensured the survival and enrichment of the Uzbek language, laying the foundation for modern Uzbek literary and scientific terminology. The article also emphasizes the lasting significance of Jadid intellectuals' work in contemporary language policy, education, and cultural identity, illustrating how historical awareness, linguistic development, and literary cultivation remain essential for national progress.

KEYWORDS

Jadid movement, Uzbek language, translation studies, lexicography, Abdulla Qodiriy, Mahmudkhoja Behbudi, Gozi Olim Yunusov, linguistic development, literary language, terminology, cultural identity.

INTRODUCTION

Buyuk adibimiz, jadid adabiyotining yirik namoyandasi, o'zbek milliy romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriyning "Moziyga qarab ish ko'rmoq xayrlidir" degan so'zlarini bugungi kunda bilmagan o'zbek bo'lmasa kerak. Darhaqiqat, har bir voqea-hodisa yoki jarayonlar tarixini o'rganmay turib, uning buguni va kelajagi haqida fikr yuritish, xulosa qilish, mazmun-mohiyatini teran anglash ancha murakkab. Shu sababli biz o'z e'tiborimizni Turkiston jadidlarining milliy til ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlari va lug'atchilik (shu jumladan, siyosiy va huquqiy lug'atlarni yaratish) an'analarga e'tiborni qaratishni maqsad qildik.

Jadidlar serqirra faoliyatining o'zak masalalaridan biri ona tiliga taalluqli bo'lib, ularning bu boradagi qarashlari hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan desak, aslo xato bo'lmaydi. Abdulla Avloniyning: "Har bir millatning dunyoda

borlig'in ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur!" degan so'zlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Abdulla Qodiriy: "So'z so'ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak", "Tilimizni kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nuqsonlarini tilga to'nkamasinlar", der ekan, ulug' adib ona tilimizning so'z boyligi va o'ziga xos jozibasi aks etgan "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari bilan o'zbek romanchiligiga asos soldi.

Jadidchilik harakati asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yilda "Oyina" jurnalida chop etilgan "Tilimiz haqida" maqolasida turkiy xalqlar uchun soddalashtirilgan adabiy til yaratish masalasini ko'tarib, til birligi turkiy xalqlar jipsligining asosi ekanini ta'kidlagan edi. Shuningdek, u sheva va lahjalarga arab va fors tillari ta'siri, tilning sofligi, yangi

so'zlar bilan boyib borishi masalalariga o'ziga xos qarashlarini bildiradi. Hatto, dastlab 1908-yilda, keyinroq 1918-yilda Turkistonda o'zbek tilining davlat tili sifatida tan olinishi haqidagi taklif bilan chiqqan edi.

Behbudiy har bir millat o'z tili bilan faxrlanishi, tilini ulug'lashi, taraqqiy ettirishi, muhofaza qilishi bilan birga, boshqa tillarni o'rganishni ham targ'ib qiladi. Jumladan, 1915-yilda "Oyina" jurnalida chiqqan maqolasiga "Ikki emas, to'rt til lozim", deya sarlavha qo'yadi. Turkiy tildan tashqari arab, fors va rus tilini o'rganishning ahamiyatini izohlab beradi. Rus tilini bilishning zaruratini tijorat, sanoat, zamon ilmini o'rganish va shu orqali mamlakatni taraqqiy ettirishga bog'laydi.

Professor Abdurauf Fitrat ona tili bo'yicha yaratgan darsligi, tilga oid o'nlab maqolalari, asarlari, tadqiqotlari bilan yirik tilshunos sifatida ham maydonga chiqdi. Uning 1919-yilda "Ishtirokiyun" gazetasida chop etilgan "Tilimiz" sarlavhali maqolasi milliy til uchun qayg'urishning o'ziga xos namunasidir. Ona tilining taqdiridan, istiqbolidan, boshqa tillar yuki bosayotganidan xavotir hissi maqolaning mazmun-mohiyatiga singib ketgan edi. Ayni paytda muallif maqolada tilimizning tarixi, ulug'ligi, boyligi, boshqa tillar orasida tutgan mavqei, nufuzini asoslar ekan, birgina "bil" so'zi o'zakligida 98ta so'z yaratish mumkinligini va bunday imkoniyat boshqa tillarda yo'qligini ilmiy asoslab beradi.

Ulug' o'zbek shoiri Abdulhamid Cho'lpon "Adabiyot yashasa – millat yashar", deya xalq hayotida adabiyotning ahamiyatidan so'z ochadi. U fikrini davom ettirib: "Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydandan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur", deb yozgan edi. Cho'lpon o'zining ijodiy faoliyati orqali tilimizning jozibasini, go'zalligini va imkoniyatlarini ko'rsatib, o'zbek adabiy tilining ravnaqiga munosib hissa qo'shdi. Tilda arabcha, forsha va tatarcha so'zlarni haddan ortiq ko'p qo'llashning oqibatlarini haqida bong urib, tilning sofligi uchun harakatga, o'zga tillar ta'siridan qutulishga chaqiradi. Ayrim davriy matbuot sahifalarida tilga yetarlicha ahamiyat berilmayotganini tanqid qiladi.

1938-yilda otuvga hukm qilingan birinchi o'zbek tilshunos olimi professor G'ozim Olim Yunusovning esa asosiy faoliyati tilshunoslik bilan bog'liq bo'ldi. Olim "O'zbek urug'laridan qatag'onlar va ularning tili", "O'zbek tili grammatikasi" va bugungi suhbatimizga taalluqli bo'lgan "Ruscha-o'zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug'at" va yana ko'plab tilga oid maqolalari bilan o'zbek tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shdi.

20-30-yillarda sho'ro yo'lbo'shchilarining "barcha tillarning birlashishi", ya'ni sobiq ittifoqdagi barcha milliy

tillarni "rus tili yutib yuborishi" to'g'risidagi "ta'limoti"dan keyin milliy tillarning ahvoli nihoyatda ayanchli kechgani hammamizga yaxshi ma'lum. O'sha davrda rus tilidan o'ylamay- netmay ko'plab terminlar o'zlashtirila boshlandi. Vaholanki, shu terminlarning sof o'zbekcha varianti mavjud edi. Shu yo'l barcha tillarni rus tili tomonidan assimilyatsiya etish yo'li deb tushunildi. O'zbek tili davlat tili sifatida sun'iy ravishda qo'llanilmadi. Uning lug'at tarkibi faqat rus tili hisobiga boyib, tilda o'zbekcha milliy ruh kamayib bordi.

Shu vaqtning o'zida jaded ziyolilarimiz jamiyatda yangi munosabatlarning qaror topishi jarayonida tilimizga minglab chetdan kirib kelayotgan yangi so'z va birikmalarga qarshi o'zlarining ehtiyot choralarini qo'llaganlar. Jumladan, 20-30-yillarda kimyo, meditsina, texnika, san'at, siyosat, huquq, iqtisod, harbiy sohalarga oid bir qator lug'atlar yaratib, o'quvchilar qo'lga yetkazish harakatida bo'lganlar.

Aytganimizdek, o'tgan asrning boshlarida zamonaviy ilm-fan asoslari, xususan, iqtisod, siyosat va huquq sohasidagi yangiliklar bilan tanishishda yetakchi mavqega ega bo'lgan rus tilida qo'llaniladigan terminlarning o'zbekcha tarjimasini lug'atlar shaklida berish zarurati tug'ilgan. Natijada, Nazir To'raqulovning 1922-yilda chop etilgan «Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi» yuzaga keldi. Bu lug'at ancha murakkab xususiyatga ega edi. Lug'at ikki tilli bo'lib, unda ruscha siyosiy-iqtisodiy terminlarning o'zbekcha tarjimasini berilgan. Biroq, terminlar tarjimasida ularning to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti (muqobili) berilgan holatlar ham, terminlarning tarjimasini bilan birga izohi berilgan holatlar ham uchraydi. Lug'at rus alfaviti tartibida tuzilgan bo'lib, unda jami 403 ta ruscha terminning o'zbekcha tarjimasini va izohi berilgan. Ushbu lug'at o'zbek lug'atshunosligida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini ham alohida ta'kidlash lozim.

G'ozim Olim Yunusovning 1926-yilda chop etilgan «Ruscha-o'zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug'at»i o'zbek lug'atchiligida terminologik lug'atlar yaratish yo'nalishida ikkinchi leksikografik asar hisoblanadi. Muallif so'zboshida mazkur to'plam haqida shunday yozadi: «Ruscha-o'zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug'at»ni yozishdan maqsad huquqiy adabiyotdagi, xususan, tarjimadagi atamalarga qat'iy va muayyan bir shakl berish va shu yo'l bilan istiloh quramligini (ixtilofini) bir daraja bo'lsada kamaytmakdir". G'ozim Olim Yunusov lug'ati arab alifbosi tartibida tuzilgan bo'lib, unda jami tilimizga kirib kelayotgan 1381 ta ruscha atamaning o'zbekcha tarjimasini va izohi berilgan edi. XX asr boshlarida o'zbek adabiy tilining siyosat va huquq sohasiga oid terminologik tizimi barqarorligini belgilash, uni tartibga solish va muntazamligini ta'minlash hamda atamalar lug'ati sohasini rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Anjumanda ishtirok etayotgan biz kabi katta avlod

vakillari sho'rolar davrida yashaganligimiz sababli, tabiiyki, so'zlashuv tilimizda rus-yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlarni faol ishlatganmiz. Mustaqillik yillarida esa, xalqimiz o'sha Nazir To'raqulov va G'ozim Olim Yunusovlar tomonidan tavsiya etilgan turkiy so'zlardan keng foydalana boshlaganini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda, Nazir To'raqulovning "Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi"dan misollarni keltirib o'tmoqchimiz:

Автономия – мухторият

Агитация – ташвиқот, тарғибот

Агрессивный – тажоввуз

Амнистия – афв умумий

Депутат – вакил

Диалог – муҳокама

Диктатор – ҳоқими мутлақ

Догма – ақида

Инициатива – ташаббус

Инцидент – воқеа

Кандидат – ноиб

Легион – қўшин

Нигилист – шаккок, мункар, инкор қилувчи

Новатор – янгилик тарафдори

Оппозиция – муҳолиф

Президиум – раёсат

Пресса – матбуот

Проблема – жумбоқ

Социалист – ижтимою

Фабрика - корхона

Федерация – иттиҳод

O'rni kelganida, G'ozim Olim Yunusovning «Ruscha-

o'zbekcha qisqa huquqiy va siyosiy lug'at»idan ham ayrim misollarni keltirib o'tishni istardik:

Акция – улуш ҳужжати

Алимент – нафақа

Аренда – ижара

Арестант – банди, маҳбус

Банк – хазина

Билет – патта

Биржа – савдо ўрни

Маклер – даллол

Верхсуд – улуғ ёрғу, олий суд

Взятка – пора, ришват

Военный трибунал - ҳарбий ёрғу

Вотум – кўпчилик қарори

Высылка – сургун

Гарантия – кафиллик

Граждан - бийлик

Гражданское право – бийлик ҳуқуқи

Кодекс – тузук

Конфискация – мусодара

Опекун – васий

План – режа

Плата – тўлов

Расход – чиқим

Республика – жумҳурият

Саботаж – ўчакишмак

Следователь – терговчи

Экспертиза – синаш

Юрисконсулт – кенгашчи ҳуқуқшунос ва ҳ.к.

Ko'rganimizdek, o'zlari mustabid tuzum tomonidan qatag'on etilgan bo'lsalarda, nomlari biror joyda qayd etilmasada, taklif etgan so'zlarining aksariyati bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinayotgaliining guvohi bo'lib turibmiz. Bu bilan tilshunos olimlarimiz o'z vaqtida harakat qilib, o'zbek tilining umrini bir asrga uzaytirib ketdilar, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'rni kelganida, ushbu masalalar taniqli tilshunos va huquqshunos olim, f.f.d, prof. Shuxrat Kuchimovning 2013-yilda nashr etilgan "Yuridik til va amaliyot" monografiyasida ham atroflicha tahlil etilganini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Biz yuqorida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jadidchilik harakati ayrim namoyandalarning til haqidagi fikrlari, til rivoji yo'lidagi xizmatlariga to'xtaldik, xolos. Aslida ularning har birining til va adabiyot haqidagi fikrlari alohida tadqiqotlarga mavzu bo'la oladi. Negaki, tilga befarq bo'lmaslik, tilning sofligini saqlash, uni boyitish, til imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish – bularning hammasi jadidlar faoliyati mezonlaridan bo'lgan.

Jadidchilik harakati va jadid adabiyoti namoyandalari uchun tarix, til, adabiyot, maorif, ilm masalasi hamisha dolzarb bo'lgan. Chunki tarixini bilgan xalq o'zligini biladi. Millat timsoli hisoblangan tilini ulug'lagan el vatanparvar bo'ladi. Adabiyoti bo'lgan millat mangu yashaydi. Maorifini ko'targan elning esa kelajagi porloq bo'ladi. Bularning hammasi xalq ongida mujassam bo'lsa, mamlakatning taraqqiy etishiga hech narsa g'ov bo'lolmaydi. Mamlakatimizda yangi, III Renessans poydevori shakllanayotgan hozirgi davrda ham ma'rifatparvar bobolarimizning ayni mana shu g'oyalari strategik asos bo'lib xizmat qilayotganligi jadidchilik g'oyasi barhayot ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: Хази́на, 1994.
2. Болтабоев Ҳ. Фитратнинг илмий мероси. – Тошкент: Фан, 1996.
3. Долимов У. Исҳоқхон Ибрat. – Тошкент: Шарқ, 1994.
4. Зоҳирий А. Тил ва имло масаласи // Қизил Ўзбекистон. – Тошкент: 1929. – №3.
5. Каримов Н. Истиқлолни уйғотган шоир. – Тошкент: Маънавият, 2000.

6. Кучимов Ш. Юридик тил ва амалиёт. – Тошкент, 2013.

7. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2008. – №2.

8. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: 2012.

9. Тўрақулов Н. Рус-ўзбек тилининг сиёсий ва иқтисодий луғатчаси. – Тошкент: Туркистон жумҳуриятининг давлат нашриёти, 1922.

10. Шарафиддинов О. Адабиёт яшаса – миллат яшар // Чўлпон. Адабиёт надири. – Тошкент: Чўлпон, 1994.

11. Қосимов Б. Жадидчилик – миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. – Тошкент: 1993.

12. Юнусов Ф. Русча-ўзбекча қисқа ҳуқуқий ва сиёсий луғат. Тошкент: Туркистон жумҳуриятининг давлат нашриёти, 1926.